



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI:
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
2024-yil 30-sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Michigan davlat universiteti (AQSH)
Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
“MASHHUR PRESS”
2024**

UO‘K: 631.542.12

KBK 83.3(0)3

“Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Toshkent: MASHHUR PRESS, 2024. – 496 b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “Adabiy ta’lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik” mavzusidagi ushbu xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida zamonaviy filologik tizimda adabiy ta’limning eng dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 dan ortiq maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirar:

I.G‘afurov – O‘zbekiston Qahramoni, San’at arbobi,

Y.Ergashev – O‘ZMU prorektori, professor

Tahrir hay’ati:

N.Hasanov, J.Jo‘rayev, Q.Husanboyeva, M.Umarova, G.Keldiyorova, D.Xatamova,

D.Qozoqboyeva, O.Hamroyeva, B.Turayeva, T.Matyoqubova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

D.Qozoqboyeva, H.Boltaboyeva

Taqrizchilar:

X.Do‘stmuhamedov – filologiya fanlari doktori, professor;

Almaz Ulvi Binnetova – filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur Materiallar O‘zMU Ilmiy texnikaviy kengashining 2024-yil
27-sentabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (09-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9910-674-30-3

© O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024

© “MASHHUR PRESS”, 2024

7. Фитрат А., 1927. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-ahmad-yassaviy-1927>.
8. Фитрат А., 1928. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-yassaviya-maktabi-shoirlari-togrisida-tekshirishlar-1928/>
9. Фитрат А., 2000. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият. – Б. 208.
10. Халқ китоблари. Ҳаким ота китоби. – Қарши: Насаф, 1993. – 31 б.
11. Эшмуҳамедова М., 2016. Яссавий мактаби шоирлари. № 4 (12) / 2016. <https://journal.fledu.uz/uz/yassavij-maktabi-shoirlari/>
12. Яссавий А., 1992. Девони Ҳикмат. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. – 208 б.

ABU ALI IBN SINO RISOLALARIDA MUMTOZ POETIKA MASALALARI

Xurshida YULDASHEVA Xamidullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs tayanch doktoranti
yuldashevaxurshidamimix2s@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada risola janri haqida qisqacha ma'lumot hamda Abu Ali ibn Sinoning adabiyotshunoslikka oid bir qancha risolalari, jumladan, "Yorug'lanish", "Ishq risolasi" hamda "She'r san'ati" asarlari haqida so'z boradi.

Abu Ali ibn Sinoning "Yorug'lanish" asari arab tilida yozilgan bo'lib, XII asrda forschaga, so'ng g'arb tillariga tarjima qilingan. Asosiy matn qo'lyozmalari Angliyada Badlean kutubxonasida, Toshkent va Dushanbe Sharq qo'lyozmalari xazinasida saqlanmoqda. Bu risolani akademik Ziyo Bunyodovning shogirdi, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tadqiqotchisi Sevinch Bagirova arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, ushbu asarni fors-tojik tilidan rus tiliga sharqshunos M.Komilov tarjima qilgan bo'lib, shu tarjima asosida risola tahlil qilingan. "Yorug'lanish" ("Azhaviya") deb atalgan ushbu risola shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sino tomonidan Abu Bakr ibn Muhammadga atab yozilgan.

"Ishq risolasi" asarida tabiatdagi barcha mavjudotlarning oziqlanish, o'sish, harakatlanish, intilish va xavf-xatardan saqlanish, jon, nafs, ruh quvvatlari asosida hayotga muhabbat, nurga – yorug'likka, go'zalikka, zaminga mehr, o'z umrini avlodlari orqali abadiy davom ettirishga, vayronalikka emas, balki o'sishga, gullab-yashnashga intilish qonuniyati amal qilishini teran falsafiy mushohadalar bilan dalillab beradi.

Ibn Sinoning "Kitob ush-she'r" risolasi Aristotelning "Poetika"si asosida yaratilgan ajoyib asar bo'lib, o'z davri adabiyotshunosligini qamrab olgan qimmatbaho manbadir. Olim bu kitobi orqali, avvalo, islom tarqagan o'lkalarda qadimgi yunon adabiyotini targ'ib qilgan va shu munosabat bilan o'zida paydo bo'lgan adabiy o'y va mulohazalarini o'rta tashlagan bo'lsa, qolaversa, adabiyotshunoslik borasida to'ngacha kam asar yaratilgan bir sohani o'z kitobi bilan baholi qudrat boyitmoqchi bo'lgan.

Kalit so'zlar: risola, ruh, tasavvuf, ishq, Arastu, poetika, Farobiy.

QUESTIONS OF CLASSICAL POETICS IN AVICENNA'S TREATISES

Annotation

The article provides a brief overview of the treatise genre and a number of literary treatises by Abu Ali ibn Sina, including "Illumination", "Treatise on Love" and "The Art of Poetry".

Abu Ali ibn Sina's work "Illumination" was written in Arabic and was translated into Persian and then into Western languages in the 12th century. Manuscripts of the main text are kept in the Bodleian Library in England, and in the treasury of Tashkent and Dushanbe Eastern manuscripts. This pamphlet was translated from Arabic into Russian by Sevinch Bagirova, student of Academician Ziya Bunyodov, researcher of the Tashkent State Institute of Oriental Studies. Also, this work was translated from the Persian-Tajik language into Russian by Orientalist M. Komilov, and based on this translation, the treatise was analyzed. This treatise called "Illumination" ("Azhawiya") was written by Sheikh Ur-Rais Abu Ali ibn Sina to Abu Bakr ibn Muhammad.

In the work "Treatise on Love", all creatures in nature feed, grow, move, strive and avoid danger, the love of life, based on the soul, spirit, love of light, beauty, earth, life proves with deep philosophical observations that the law of striving for growth and prosperity, and not for destruction, but for eternal continuation through generations. Ibn Sina's treatise "The Art of Poetry" is a wonderful work created on the basis of Aristotle's "Poetics" and is a valuable source illuminating the literary studies of his time. Thanks to this book, the scientist, first of all, popularized ancient Greek literature in the countries where Islam spread and revealed his literary thoughts and opinions on this matter. He wanted to enrich with his book an area where little work had been created.

Key words: *treatise, spirit, mysticism, love, Aristotle, poetics, Farabi.*

ВОПРОСЫ КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭТИКИ В ТРАКТАТАХ АВИЦЕННЫ

Аннотация

В статье дан краткий обзор жанра трактата и ряда литературных трактатов Абу Али ибн Сины, в том числе «Освещение», «Трактат о любви» и «Искусство поэзии».

Произведение Абу Али ибн Сины «Освещение» было написано на арабском языке и в XII веке было переведено на персидский, а затем и на западные языки. Рукописи основного текста хранятся в Бэблинской библиотеке в Англии, а также в сокровищнице ташкентских и душанбинских восточных рукописей. Эту брошюру с арабского языка на русский перевела Севинч Багирова, ученица академика Зия Бунядова, научного сотрудника Ташкентского государственного института востоковедения. Также данный труд был переведен с персидско-таджикского языка на русский востоковедом М. Комиловым и на основе этого перевода проанализирован трактат. Этот трактат под названием «Освещение» («Азхавия») был написан шейху-р-раисом Абу Али ибн Синой Абу Бакру ибн Мухаммаду.

В произведении «Трактат о любви» все существа в природе питаются, растут, движутся, стремятся и избегают опасности, любовь к жизни, основанная на душе, духе, любовь к свету, красоте, земле, жизни доказывает глубокими философскими наблюдениями, что закон стремления к росту и процветанию, а не к разрушению, а к вечному продолжению через поколения. Трактат Ибн Сины «Искусство поэзии» представляет собой замечательный труд, созданный на основе «Поэтики» Аристотеля и являющийся ценным источником, освещающим литературоведение своего времени. Благодаря этой книге ученый, прежде всего, популяризировал древнегреческую литературу в странах распространения ислама и раскрыл свои литературные мысли и мнения на этот счет. Он хотел обогатить своей книгой область, где было создано мало произведений.

Ключевые слова: трактат, дух, мистика, любовь, Аристотель, поэтика, Фараби

Abu Ali ibn Sino yurtimizda asosan tibbiyot vakili sifatida tanish. Lekin ilm ahliga uning qomusiy olim ekanligi ham ma'lum. Jumladan, uning falsafa, musiqa, adabiyotshunoslikka oid asarlari bir talay. Shu nuqtayi nazardan, olimning adabiyotshunoslikka oid asarlarini o'rganish, tarjima qilinganlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri. Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr sharq va g'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, at Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirgan. Yevropada allo-maning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitila boshlagan. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalangan va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga olgan.

Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 242 (160)tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan [Ибн Сина, 1981: 16.]. Lekin bu asarlarning hammasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan emas. Ibn Sinoning ko'proq falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta qayta nashr qilib kelinmoqda, lekin shu bilan bir vaqtda, boshqa ko'p asarlari hali qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Abu Ali ibn Sinoning "Ilmlar tasnifi", "Kitob ush-she'r" risolalarida she'r shakli, xususan, mumtoz she'r shakli, unga baho berish, misol tariqasida esa qadimgi yunon she'riyati tasniflangan. Bu asarlarni o'rganish esa yunon she'r shakli, dramatik turning mezonga solinganligini kengroq tahlil qilish imkonini beradi. Olimning yuqoridagi risolalari bilan birga "Yorug'lanish", "Ishq risolasi" asari ilmiy asar hisoblanadi. O'zbek adabiyotshunosligida ushbu risolalarni o'rganish zaruriyati esa mumtoz ilmiy talqinlarga bo'lgan ehtiyojdandir.

Risola janri qadimgi janrlardan biri bo'lib, ushbu tilda va yo'nalishda arab madaniyati ta'sirida o'zlashgan. Risolat so'zi lug'atda bir narsani lutf ila yuborishga ishlatiladi. Arablarda birovga yuborilgan maktub ham risola deyilgan. Birov tomonidan yuborilgan elchi ham rasul deb ataladi.

Shundan kelib chiqib, Alloh taolo yuborgan muayyan diniy ta'limotlar to'plami "risolat" deyiladi. Uni odamlarga o'rgatish amr qilingan elchisi "rasululloh" deyiladi [<https://islom.uz/maqola/11670>].

Risola (arab. xat, xabar) – 1) muayyan kasb-hunar va uning tartib-qoidalariga oid kitobcha, ustav (masalan, kulollik risolasi, novvoylik risolasi); 2) kichik hajmli kitob, broshyura; 3) biror ilmiy masalaga bag'ishlangan asar, traktat [<https://uz.wikipedia.org/wiki/Risola>].

Traktat (lotincha "tractatus" – ko'rib chiqilishi lozim) – mavzuga fundamental yondashuvni taqdim etishni maqsad qilgan mulohaza yuritish (ko'pincha polemik ko'rinishda) ko'rinishidagi masalani muhokama qilishni o'z ichiga olgan ilmiy inshoga mos keladigan adabiy shakllardan biri [<https://uz.wikipedia.org/wiki/Risola>].

Hozirgacha Koalen risolasi (lot. Tractatus Coislinianus) – X asrga oid ikki sahifali anonim yunoncha qo'lyozma bo'lib, ilk filologik risola hisoblanadi [https://ru.upwiki.one/wiki/Tractatus_coislinianus].

“Yorug‘lanish” risolasida ilk marta Ibn Sinoning o‘zi yozgan va shogirdi Abdulvohid Juzjoniy davom ettirgan tarjimayi holi bizgacha yetib kelgan. “Yorug‘lanish (“Azhaviya”) deb atalgan ushbu risola shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sino tomonidan Abu Bakr ibn Muhammadga atab yozilgan. Ibn Sinoning o‘zi shu asarida quyidagicha yozgan: “Qodir Olloh shayx ul-aminning ruhi poklarini ikki dunyo ilmi nurlari bilan yoritsin, dilini tabiiy illatlardan saqlasin! Unga uzoq umr ato etsinki, u chinakam baxt-saodatga erisha olsun! Ikki dunyo ishlarida unga omadlar yor bo‘lsin!” [Abu Ali ibn Sino, 2017: 73].

“Azhaviya” asarining nomi Qur’oni karimda kelgan “Az-Zuho” – “Tong yorishuvi” so‘zidagi falsafiy ma’no – ong yorishuvini anglatadi. Inson ongi yorishganda gunoh va savobni farqlaydi.

Risola (aslida beshta, ammo uchinchi bobdan keyin qo‘shimcha bob orttirilgani munosabati bilan) oltita bobdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

- ma’odning mohiyati;
- ma’od ta’rifidagi ixtiloflar;
- yanglish ta’limotlar tanqidi;
- “ruhning ko‘chishi” g‘oyasi tarafdorlarini tanqid qilish;
- inson mohiyati haqida;
- inson mohiyatining o‘lmasligi va abadiyligi haqida.

“Ma’od” arabcha “a’vd” (qaytmoq) so‘zining o‘zagidan olingan bo‘lib, biron narsaning joylashgan o‘rni yoki holatidan ajralib, yana o‘shanga qaytishi tushuniladi. Xiradmandlar ma’odning mohiyatida odamzodning o‘limdan keyingi holatini tushunishgan [Abu Ali ibn Sino, 2017: 75].

Olimning fikricha, odamlar orasida ma’od haqida turlicha tushunchalar bor, ya’ni ma’od shunday joyki, odam vafotidan keyin shu yerda joylashadi, bu – haqiqat. Lekin uning o‘rni hozirgidan boshqa joyda. Odamlarning ruhi u dunyodan kelgan, odam o‘lgach, ruh yana o‘z dunyosiga qaytib ketadi. Ana shu tushuncha bo‘yicha agar ruh gunohlardan pok bo‘lsa, “jannat”dan joy oladi, agar gunohlar yuki ostida qolsa, “do‘zax”ga tushadi.

Ikkinchi bobda ma’od atrofidagi xilma-xil qarashlar olg‘a suriladi. Xususan, kishilarning aql va ziyraklik jihatdan uncha kuchli bo‘lmagan ozroq qismi ma’od borligini inkor qilgan. Aqli raso kishilarning barchasi uning barhaqligiga iymon keltirgan. Bularni bir necha guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhdagilar “qaytish” faqat badan (tana)ga tegishli deb ruh mavjudligini inkor etgan. Boshqa guruhga esa narigi dunyoga ham badan, ham ruh qaytadi deb hisoblagan.

Ibn Sinoga ko‘ra, faqat tana qaytadi deganlar dialektika tarafdorlari bo‘lib, haqiqiy ilmdan xabarsiz. Ular odam tanadan iborat, hayot va insoniy xususiyatlar tanada hosil qilingan ikkita o‘zgaruvchi sifat, o‘lim esa ushbu ikki sifatning bir-biridan ajralishi, deb o‘ylaydi. Bunday qarashga qarshi bo‘lgan guruhdagilar oxirat (bani basharning qiyomatda qirilib yo‘q bo‘lishidan keyingi hayot)da qayta tirilish ro‘y berib, shu dunyoda yashab o‘tgan jami odam ahli tanasiga hayot va odamiylik suvrati qaytadi, deb hisoblaydi. Qayta tirilgan insonlar ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi – savoblilar, ikkinchisi – gunohkorlar. Savoblilar narigi dunyoda yaxshi hayotga erishadi, gunohkorlar esa qiynoqqa mahkum.

Tana va ruh birgalikda qaytadi deguvchilar: “Tana ruh uchun yaratilgan, ruh yana qaytsa, faqat o‘z tanasiga qaytadi, dil, ruh – latif jism” deb hisoblashgan. Boshqalari esa dil shaffof tanadan iborat deydi. Agar ruh gunohlardan xoli, savobga to‘la bo‘lsa, oxiratda (ikkilamchi tiriklikda) ikki tomonlama: ruhiy va jismoniy jihatdan rohat-farog‘atga erishadi [Abu Ali ibn Sino, 2017: 76].

Ruhiiy xotirjamlik deganda, aql-idrok vositasida farishtalar olamini mushohada qilib, ular bilan qo'shilish va najot topish tushuniladi. Agar ruh gunohlar bilan kirlangan bo'lsa, (unga) beriladigan jazo ham ruhiy, ham jismoniy azob bilan kechadi. Jismoniy azob deganda o'tda kuyish, sovuqda qotish, zahar va boshqa narsalardan qiynalish, ruhiy azobga esa afsus-nadomat chekish, haqoratlanish, qo'rquv va boshqalar kiradi.

Uchinchi bobga ko'ra shariat ahkomlarini tuzuvchi o'z ta'limoti ma'nosini shunday chuqur tushuntirishi kerakki, u har qanday xato va noaniqliklardan xoli bo'lsin, har bir kishi masala ma'nosini tushunib ola bilsin va bunda ortiqcha tortishuvga hojat qolmasin. Bundan ma'lumki, diniy aqidalar tabiati shunday: uni barchaga birdek tushuntirib bo'lmaydi. Diniy aqidalarning odamlar anglab yetadigan qismi payg'ambarlar tomonidan tushuntiriladi, anglashilishi qiyin bo'lgan jihatlari esa qiyoslash va shunga o'xshash tamoyillar orqali yoritib beriladi.

Odam haqida so'z ketganda odam xayulo (materiya) deb atalgan xomashyo modda tufayli odamga aylanmaganligig, balki u jism ichiga joylashtirilgan ruh tufayli odamga aylangani chiroyli dalillab o'tilgan. San'at, madaniyat, ilm-fan kabi inson faoliyatiga bog'liq narsalar moddaning o'ziga emas, balki uning yashash shakllariga bog'liq hodisalardir. Agar shakl yo'qolsa, uning moddasi ham yo'qoladi yoki boshqa unsurga aylanadi. Agar mana shu modda (substrat)-dan boshqa odam shakli yaratilsa, uning mohiyati ham boshqa odamga aylanadi yoki birinchi odamdan ikkinchisiga o'sha modda qoladi, shakl esa o'zgaradi. Odam modda tufayli emas, ruh tufayli odamdir. Maqtov, malomat, savobli amallar evaziga olinadigan ajr yoki gunoh tufayli tortiladigan azob moddaga emas, ruhga bog'liq. Yuqoridagi sifatlar odam moddasiga emas, ruhga xos, deyilsa, oxiratda beriladigan jazo gunohlar uchun, ajr-mukofot esa savoblar uchun, degan gap noto'g'ridek tuyuladi.

Olim bu fikrini "Ishq risolasi" nomli asarida ham to'ldirgan [<https://kh-davron.uz/yangiliklar/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola.>]. Risolaning ikkinchi faslida bayon qilinishicha, oddiy jonsiz mavjudotlar uch toifaga bo'linadi: Haqiqiy hayulo (dastlabki modda); O'z-o'zicha mavjud bo'la olmaydigan shakllar; Ikkinchi darajali (juz'iy) narsalar (aktsidensiya). Ana shu shakllar bilan juz'iy narsalarning farqi shundan iboratki, modda shaklda mohiyat kasb etadi. Shuning uchun ham qadimgi ilohiyotchilar shaklni mohiyat jinsining bir turiga kiritish kerak, deb hisoblar edi. Chunki shakl mustaqil ravishda mavjud bo'lgan mohiyat (javhar)ning uzviy qismi hisoblanadi. U o'z-o'zicha alohida mavjud bo'la olmaydi. Chunki dastlabki moddaning tabiati (holati) shunday edi. Shunga qaramay, modda javhari mohiyatga tegishli ekanligini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki u tabiatan o'zidan-o'zi mavjud bo'luvchi mohiyatlarning bir bo'lagi hisoblanadi. Bundan tashqari, ilohiyotchilar ilk modda (hayulo)ga nisbatan shaklda ko'proq mohiyatga oid xususiyatlar mavjud, deb bilishadi. Buning sababi shundan iboratki, modda javhari shu javhargacha shakl bo'lgani uchun ham mavjuddir: agar shakl mavjud bo'lsa, javhar ham mavjud bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, bil-quvva shakl bil-fe'ning bir turi sifatida mavjuddir, deyiladi.

Inson mohiyati haqidagi bobda ham shu fukrlar to'laroq davom etganini ko'ramiz. Ya'ni odam o'zi haqida o'ylaganda yurak borligini sezmaydi, sezganda ham uning qanaqaligi, qayerda joylashishini bilmaydi yoki ko'krakning chap tomonida joylashgan bir parcha go'shtni yurak deb hisoblaydi. Bir narsaning muayyan bir odam uchun noaniq yoki aniq bo'lishi va narsa mohiyatining bir qismi noaniq bo'lib, o'zi esa aniq bo'lishi mumkin emas; aksincha, qismni bilish uchun butunni o'rganish talab etiladi. Tekshirishlardan shu narsa aniqlanganki, odamni odam qilib turgan sifatlar, xislatlar, fazilatlar uning mohiyatidir. Odamdagi ana shu mohiyat (aql-idrok, bilim, ma'rifat, adolat, bag'rikenglik, bunyodkorlik) uni aziz va mukarram qiladi. Narsalarni anglash, kasb-hunar egallash va o'zini bilish (hatto o'z borlig'i haqida o'ylaganda badandagi a'zolarini "unutib" qo'ysa ham) ruh mohiyatidir. Yomonlikdan saqlanish, ezgulikka intilish,

yaxshilikdan sevinish, qayg‘u-kulfatlardan iztirob chekish yoki lazzatdan kayf-safo hissini tuyish – barchasi ruh javhariga bog‘liq. Odamning qayg‘u-alam chekishi yoki kayf-safoga moyilligi, muhabbati yoki nafrati, biron narsaga bog‘lanib qolishi kabi holatlar inson mohiyatiga bog‘liq.

Beshinchi bobda Ibn Sino Arastuning “Ruh haqida” kitobiga yozgan sharhida ruh (jon)ning mohiyat (substansiya) ekanligi to‘g‘risida alohida to‘xtalganligini, bu bobda notiq (gapiruvchi) odamning ruhi moddaga va tanaga bog‘liq emasligi haqida qisqacha aytib o‘tgan. Buni turli shakllarda sharhlashga harakat qilgan [Abu Ali ibn Sino, 2017: 92].

Uningcha, tanada tamom bo‘lmaydigan cheksiz kuch yo‘q. Ruhning kuch-quvvati esa cheksizdir. Zero, ruh orqali anglanadigan aqliy tushunchalar va miqdoriy mohiyatlar son-sanog‘i yo‘q narsalardir. Ruhda ularni anglash qobiliyati bor. Bundan tashqari, tabiat haqidagi fan, ilohiy ilm va ruhiy quvvatlar narsalarni anglashda bir xil kuchga ega. Shu narsa isbot qilinganki, ruh narsalarni anglashda ado bo‘lmas quvvat sohibi va u tana ham emas, tanada joylashgan ham emas. Tanadagi har qanday quvvat o‘lchovli bo‘lib, uning o‘zi ham chekli-chegarali ekanligi isbot qilingan. Ruh bo‘linmas tananing bir qismida joylashishi mumkin emas. Chunki bu qism (agar mavjud bo‘lsa) uning bo‘linmas bir zarrasi yoki nuqtasi hisoblanadi. Ammo handasa va tabiat fanlarida bo‘linmaydigan zarraning yo‘qligi aytilgan.

Ibn Sino o‘zining butun hayoti davomida tinmasdan izlandi, mehnat qildi. “Men mehnat bilangina tirikman, – deb ta’kidlar edi u, – qolganlari esa faqat kun kechirishgina xolos”. Ilmu-fan Ibn Sinoning butun borlig‘ini qamrab olgan, alloma unga o‘zini butunlay baxshida etgan edi [<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola-1.html>].

Abu Ali ibn Sinoning “Kitob ush-she’r” risolasi to‘rt fasldan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

- she’r haqida umumiy tushuncha, she’riy forma hamda yunon she’r navlari haqida;
- she’rdagi umumiy g‘araz turlari va taqlidlar haqida;
- she’rning dastlab paydo bo‘lish kayfiyati va she’r turlari haqida;
- baytlar miqdorining g‘arazlar bilan munosabati, xususan, tragediya haqida, tragediya bo‘limlari bayoni.

She’r san’ati haqida Farobiy ham, ibn Sino ham bir xil mavzuda asar yozishgan. Ularga manba bo‘lgan Aristotelning “Poetika” kitobi edi. Shuning uchun ularning yozgan bu asarlarini Aristotel “Poetika”si haqida yozilgan taqriz yoki mulohazalar desak bo‘ladi.

Ammo o‘rta asrda hozirgi kunda qabul qilinganidek, kitoblarga taqriz yozish odat tusiga kirmagan edi, to‘g‘rirog‘i, taqriz janri hozirgi kundagidek ommaviy tusda bo‘lmagan. U davrda ham shunday hozirgi taqriz kabi asarlar yozilgan, lekin ular ko‘pincha taqlidiy asar yoki sharh deb qabul qilinib, bu to‘g‘rida asar yozgan kishi taqlidchi yoki shorih deb tanilgan. Shuning uchun ham Aristotel asariga taqriz yozib, undagi fikr-mulohazalarni kengroq, batafsil tushuntirishga uringan va u asar qimmatiga yetuk baho bergan Farobiy, al-Kindiy, ibn Sino va ibn Ro‘shdiylarning bub xususda yozganlarini asl kitobga yozilgan sharh deb atashgan. Ibn Sino bu borada yozganini sharh ham, taqriz ham demay, balki mustaqil bir asar sifatida olib, uni mashhur “ash-Shifo” asarining bir qismiga kiritgan.

Abu Nasr Farobiy bilan ibn Sinoning bu boradagi asarlarini muqoyasa qilsak, shayx ur-ra'is o‘z zamondoshi bo‘lmish Farobiyning “Shoirilar san’ati qonunlari haqida” risolasini mutolaa qilgan degan xulosaga kelish mumkin. Chunki asarlarining tuzilish sxemasi bir-biriga juda o‘xshaydi: faylasuflar ikkala asarda ham janrlar xususida bir xil tarzda mulohaza yuritadilar, hatto ularning sanab o‘tish tartiblari ham deyarli bir xil. Farobiy ham, Ibn Sino ham yunon adabiyoti janrlari haqida yozishganida ular masalaga bir xil tarzda to‘xtashadi. Farobiy asarida yunon adabiyoti janrlaridan tragediya, difiramb, komediya, yamb, drama, epik asarlar, diakramma,

epos, ritorika, satira, poema, akustika kabilarga to‘xtab o‘tgan, ular to‘g‘risida ta’rif berib, mu-lohazalarini bitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino, 2017. Yoruglanish // Jahon adabiyoti. – №1. – B 73–94.
2. Abu Nasr Farobiy, 1979. She’r san’ati. – Toshkent. – 68 b.
3. Arastu, 2004. Poetika (Poeziya san’ati haqida). Axloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – B.23-24.
4. Абу Али ибн Сино, 2014. Ишқ ҳақида рисола / М.Маҳмуд, З.Баҳриддинов тарж. // Шарқ юлдузи. – 2-сон. – 18 b.
5. Irisov A., 1980. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan. – 160 b.
6. Ибн Сино и средневековая философия, 1981. – Душанбе: Дониш,– С.16.
7. Серебряков Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) О любви. – Тбилиси, 1972. – С.42.

MUNDARIJA

I.U.MADJIDOV. ADABIY TA'LIM METODOLOGIYASI: XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK SAMARALARI (So'zbjshi o'rnida).....	3
 1-sho'ba. ADABIY TA'LIMDAGI YETAKCHI KONSEPSIYALAR	
Tanju SEYHAN. DOĞU TÜRKÇESİYLE ÜÇ ARUZ RİSALESİNDE ARUZ TERİMLERİ VE TANIM CÜMLELERİNİN YAPISI.....	7
Məmməd ƏLİYEV. ƏDƏBİYYAT NƏZƏRİYYƏÇİSİ SALİDƏ ŞƏRİFOVANIN ELMI TƏDQİQATLARINA BAXIŞ.....	25
Mehmet Cemal ÇİFTÇİGÜZELİ. DÜNYA BARIŞINA VE İNSANA YATIRIMI ALİMLER VE SANATÇILAR GETİRECEK.....	37
Сувон МЕЛИ. АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ СЕВГИ ТАЛҚИНЛАРИ.....	44
Исомиддин ЁРМАТОВ. ПОЭТИК ОЛАМ КАТЕГОРИЯСИГА ДОИР НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ТАВСИФИ.....	49
Шоира АХМЕДОМА. ПРОФЕССОР АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ АДАБИЁТ- ШУНОСЛИККА ДОИР ҚАРАШЛАРИ ТАЛҚИНЛАРИ.....	56
Жасурбек МАХМУДОВ. ЎЗБЕК ҚИССА ВА АФСОНАЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ-ДИНИЙ ГЕНЕЗИСИГА ДОИР.....	61
Orzigul HAMROYEVA. TURKIY QOFIYA TAKOMILIDA ALISHER NAVOIYNING O'RNI.....	66
Хулкар ҲАМРОЕВА, Тўмарис Аъзам БУТУНБАЕВА. САНЪАТ ДИАЛЕКТИКАСИ: АБДУРАУФ ФИТРАТ ИЖОДИНИНГ СИРИ ВА СЕҲРИ.....	73
Пердебай НУРЖАНОВ. ҚОРАҚАЛПОҚ ФОЛЬКЛОРИДА ОЛТИН ЎРДА ВА НЎҒАЙ ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИНИНГ ТАСВИРЛАНИШИ.....	78
Zilola AMONOVA, Maftuna TO'RAYEVA. SADRIDDIN AYNIYNING ILMIY TALQINLARI (ABU ALI IBN SINO FAOLIYATI MISOLIDA).....	83
Дилфуза ХАТАМОВА. ПОЭТИКА ТЕРМИНИНИНГ МАЪНО ҚАМРОВИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....	90
Dilshod G'AYIPOV, Guliston ABDULLAYEVA. XORAZM ADABIY MUHITIDA YANGICHA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING BADIY TALQINI.....	95
Arzu HAGIYEVA. FİRİDUN BƏY KÖÇƏRLİNİN “AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATI TARİXİ” KİTABINDA ƏLİŞİR NƏVAİ.....	100
Nasima QODIROVA. ROLAN BART ADABIY-TANQID NAZARIYOTCHISI SIFATIDA.....	107
Shuhrat HAYITOV. «ARUZ RISOLASI» TADQIQI.....	112
Нигорахон САЛОХИДДИНОВА. ШЕЪР МАТНИДА АЁЛ ОЛАМИНИ ИФОДАЛОВЧИ СЎЗНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ.....	121
Aytən QURBANOV. TÜRKSOYLU DÖVLƏTLƏRİN ƏDƏBİYYATINDA ÜMUMTÜRK KONTEKSTİ.....	126
Жамила БУРАНОВА. ПОЭТИКА МИФА В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА.....	132
Gülnar YUNUSOVA. XX ƏSR YAPON ƏDƏBİYYATINDA YENİ TƏMAYÜLLƏRİN FORMALAŞMASINI ŞƏRTLƏNDİRƏN AMİLLƏR.....	141

Zebo SABIROVA. ZAMONAVIY ADABIY JARAYONNI DAVRLASHTIRISH XUSUSIDA.....	145
Zilola JAMOLOVA. ADABIY OBZORLARDA MUMTOZ ADABIYOT TAHLILI.....	150
Абдымиталип МУРЗАКМЕТОВ. КЫРГЫЗ ФОЛЬКЛОРУНДАГЫ «КОРКУТМА» ЖАНРЫ.....	155
Məsumə NURIYEVA. QUL ƏTAYİNİN “LEYLİ VƏ MƏCNUN” ƏSƏRİNİN POETİK QAYNAĞI: “KİTABİ-DƏDƏ QORQUD”.....	162
Səbirə MÜZAFFARLI. AVANQARDİZMİN DÜNYADA TENDENSİYA KİMİ İNKİŞAFI.....	168
Bobur ISMOILOV. YUSUF SAKKOKIYNING «MIFTOHU-L-ULUM» ASARIDA EGAGA TEGISHLI HOLATLAR TA'RIFI VA UNING ANIQLIK O'RINLARI.....	174
Shavkatjon VOSITOV. FITRATNING ILMIY MEROSI TALQINILARI.....	180
Atagulla SATBAYEV. HÁZIRGI QARAQALPAQ LIRIKASINDA AVTORLIQ PUNKTUACIYANIN STILLIK QOLLANILIVI.....	185
Озода НОРҚУЛОВА. ДРАМАТУРГИЯ ТАДҚИҚОТЧИСИ.....	192
Xurshidabonu SATTORZODA. PIRIMQUL QODIROVNING CHO'L PON HAQIDAGI NAZARIY QARASHLARI TAHLILI.....	196
Nodirjon G'AFUROV. O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA AHMAD YASSAVIY MAKTABI VAKILLARI IJODINING O'RGANILISHI.....	199
Xurshida YULDASHEVA. ABU ALI IBN SINO RISOLALARIDA MUMTOZ POETIKA MASALALARI.....	205
 2-шўъба. MUMTOZ ADABIYOTNING NAZARIY ASOSLARI	
Abdurrahman GÜZEL. YÛNUS EMRE'NİN ESERLERİNDE İNSAN SEVGİSİ.....	212
Süleyman DOĞAN. MEVLANA'NIN MESNEVİ'SİNDEN METAFORİK TELKİNLER.....	223
Təhminə BƏDALOVA. AĞABƏYİM AĞA CAVANŞİR ƏDƏBİ-BƏDİİ MƏTNLƏRDƏ: MÖVCUD TƏHLİLLƏR VƏ YORUMLARA BAXIŞ.....	242
Нодирхон ҲАСАНОВ. ХҲЖАНАЗАР ҲУБАЙДО ВА ЎЗБЕК ТАСАВВУФ ШЕЪРИЯТИ.....	246
Könül HACIYEVA. AZƏRBAYCAN KLASSİK ƏDƏBİYYATI NÜMAYƏNDƏSİ XAQANİNİN QƏZƏLLƏRİNDƏ TƏŞBEH VƏ MÜBALİĞƏ SİSTEMİ.....	251
Исроил СУЛАЙМОНОВ. «БОБУРНОМА»ДА ШАХС РУҲИЯТИ ТАСВИРИ ВА МУАЛЛИФ МАҲОРАТИ.....	259
Қурбанбай ЖАРИМБЕТОВ. XALQ DARDINI KUYLAGAN SHOIR.....	265
Kamalbay PALIMBETOV. ÁJINIYAZ SHIGARMALARIN ELEDE TEREÑIREK IZERTLEW MÁSELELERI.....	271
Ziyada BEKBERGENOVA. BERDAQ SHIGARMALARIN ÚYRENIWDIÑ JAŇA BAĞDARLARI.....	279
Жалолиддин ЖЎРАЕВ, Саидакбар МУҲАММАДАМИНОВ. МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎЗРФА ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ФОНДИДА САҚЛАНАЁТГАН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ТАСНИФИ ВА КОДИКОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.....	287
Фарида КАРИМОВА. ФОРС АДАБИЁТИДА ДЕБОЧАНАВИСЛИКНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШИ ВА ТАДРИЖИЙ ТАКОМИЛИ ХУСУСИДА.....	295
Bobonazar MURTAOYEV. “LUBOBU-L-ALBOB”NING SIRLI OLAMI.....	302

Эргаш ОЧИЛОВ. УВАЙСИЙ ИЖОДИДА ИРФОНИЙ МОТИВЛАР.....	310
Мунира ШАРИПОВА. «БАҲР УЛ-ҲУДО» ҚАСИДАСИНИНГ ЖАНР ХУСУСИЯТЛАРИ ВА БАДИИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	315
Islombek MANNOPOV. YASSAVIYLIK ADABIYOTI MAVZULARI TASNIFI GA DOIR.....	326
Dilrabo QOZOQBOYEVA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA MAKTUB JANRI.....	332
Tamara MASHARIPOVA. ÁJINIYAZ POEZIYASINDA SHIYRIW SHEKER USILI.....	345
ТЕЕР Елена. ТЕМА ЛЮБВИ В ПОЭМЕ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН» НИЗАМИ И АЛИШЕРА НАВОИ: СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	351
Акбархон АСРОРОВ. НАҚШБАНДИЙЛИК ТАРИҚАТИ ВОРИСИ САБРИЙНИНГ АДАБИЙ МЕРОСИ.....	356
Нигора ШАРИПОВА. “ҲАЙРАТУ-Л-АБРОР” ҚАҲРАМОНЛАРИ ОЛАМИНИНГ АСАР СЮЖЕТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	361
Қаҳрамон ИСМОИЛОВ. ХОЖА АХМАД ЯССАВИЙ ИЗДОШЛАРИ ВА УЛАРИНИНГ АСАРЛАРИГА МУНОСАБАТ.....	368
Sohiba UMAROVA. HORAZM SHOIRLARI DEVONLARINING MATNIY TADQIQI VA TAHLILI.....	378
Ulbo'sin AMETOVA. АХМАД ЯССАВИЙ, НАЖМИДДИН КУБРО, ПАҲЛАВОН МАҲМУД ИЖОДИДАГИ АДАБИЙ МУШТАРАКЛИК ВА ТАРИҚАТ АЙИРМАЛАРИ.....	382
Абдулхамид ҚУРБОНОВ. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ЮРАК, ҚАЛБ ВА КЎНГУЛ ТАЛҚИНИ.....	388
Dilfuza Toshniyozova. AYYIDMUHAMMAD YO'LDOSH IBN DAVLAT DEVONIDA MUXAMMAS JANRI TAKOMILI.....	397
Зулфия МЎМИНОВА. ЯССАВИЙЛИК ТАРИҚАТИ МАНБАЛАРИ: «ҲАДИЙҚАТУ-Л-АРИФИЙН» АСАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	402
Собира ЖЎРАЕВА. ШУКУРИЙ МАСНАВИЙЛАРИДА ФАЛСАФИЙ- АХЛОҚИЙ МАВЗУ ТАЛҚИНИ.....	409
Севар ШОМУРОДОВА. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ИЖОДИНИ ЎРГАНИШ МАСАЛАЛАРИ.....	414
Besti QURBANOV. BOBORAHIM MASHRAV VA OSHIQ ALASKAR IJODIDA TASAVVUF CHIZGISINING O'XSHASH JIHATLARI.....	418
Lale PASAYEVA. “HEFT PEYKER”IN TÜRK EDEBİYATINA ETKİSİ: (“SEBAYİ SEYYĀR” VE “HEFT-HVĀN”).....	423
Pəri HÜMBƏTOVA. MƏSİHİ TƏBRİZİ FÜZULİ ƏDƏBİ MƏKTƏBİNİN NÜMAYƏNDƏSİ KİMİ.....	425
Samirə ƏLİYEV. NİZAMİ GƏNCƏVİNİN “XOSROV VƏ ŞİRİN” ƏSƏRİNİN XIV-XV ƏSR TÜRK TƏRCÜMƏLƏRİ.....	431
Adolat NURALIYEVA. ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA BOSH QAHRAMON OBRAZI TALQIBYLARI.....	436
Fayzullo YAXYOYEV. TO'XTASIN JALOLOV VA UNING “XAMSA” TALQINLARI” ASARI.....	443
Hilola ESHKUZIYEVA. “ROHATI DIL” DOSTONIDAGI HIKOYATLAR TASNIFI.....	449

Mohinur ABDURAHMONOVA. ANDIJON ADABIY MUHITIDA MUSHOARA JANRI RIVOJI	454
Durdona SODIQBOYEVA. “MIFTOH UL-ADL” VA “GULZOR” ASARLARIDA BADIY OBRAZLAR TASVIRI	460
Dildora HUSANOVA. “BOBURNOMA”DA KELITIRILGAN NAZM PARCHALARIDA MUALLIF RUHIY HOLATINING BADIY TALQINI	465
Dilshoda SHIRINOVA. ALISHER NAVOIYNING “LISON UT- TAYR” DOSTONI XUSUSIDA	472
Laylo SUVONQULOVA. NAVOIYNING LIRIK ASARLARIDA OBRAZLAR TALQINI	478
Nargiza SHIRINOVA. ADABIY MANBALARNING MATNIY TADQIQI MASALASI	483

Ilmiy nashr

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”**

**mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

« MASHHUR PRESS» nashriyoti

Bosishga ruxsat etildi 27.09.2024
Qog‘oz bichimi A4. Ofset qog‘oz.
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tabog‘i 32,0.
Shartli bosma tabog‘i 37,5. Adadi 200
Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO‘Z»
oilaviy korxonaning
matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Beshqayrag‘och ko‘chasi, 156 uy.
Tel.: 99 847-12-12